

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HARBIY KAFEDRASI

«Himoyaga ruhsat etilsin»

Harbiy kafedra boshlig'i

podpolkovnik \_\_\_\_\_ L.Davirov

«\_\_\_\_\_» 2016 yil.

5111500 – «Chaqiriqqacha harbiy ta'lism» ta'lism yo'nalishi

4- kurs 401 guruh talabasi

Olimov Nosirjon Ismatilla o'g'lining

Ta'lism muassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning  
shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlari mavzusidagi

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

\_\_\_\_\_ talaba Olimov N.

Ilmiy rahbar: podpolkovnik

\_\_\_\_\_ Hasanov M.

«Himoyaga tavsiya etilsin»

\_\_\_\_\_sikl boshlig'i

\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2016 yil.

Toshkent–2016

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda. Fuqaro muxofazasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish uslublari va maqsadi.....</b>	<b>6</b>
1.1. Fuqaro muxofazasi fanini o'qitish va mashg'ulotlarni olib borish uslublari.....	6
1.2. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik umumiyl tushunchalarining atamalari va ta'riflari.....	9
<b>II-BOB Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatdan himoyalashning «me'yoriy va huquqiy hujjatlari».....</b>	<b>21</b>
2.1. Fuqaro muxofazasi qonunining ishlab chiqilishi va amalga kiritilishi.....	21
2.2. Fuqaro muxofazasi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar va O'zbekiston respublikasi Prezidentining F.V.Vni tashkil to'g'risidagi ko'rsatmasi.....	62
2.3. Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatdan muxofaza qilishning huquqiy asoslari.....	
<b>III-BOB TAJRIBA SINOV ISHLARINING SHART – SHAROITLARI VA MAZMUNI.....</b>	<b>65</b>
3.1. Tajriba-sinov ishlarining nazariy mazmuni.....	65
<b>UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....</b>	<b>71</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	73

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi** - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini favqulodda vaziyatlardan tabiiy ofatlaru texnogen xususiyatli avariyalardan muhofaza qilish, sodir bo'lgai takdirda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, xalq xo'jaligi ob'ektlari faoliyatining barqarorligini oshirish kabi muhim va zarur vazifalarni amalga oshirish borasida davlat tizimi tuzilmalarini tayyorlash va unga rahbarlik kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Shu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qabul qilgan qonunlar va qarorlar ushbu to'plamga kiritilgan bo'lib, bu me'yoriy hujjatlar to'plami davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari, vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari va fuqaro muxofazasi mutaxassislari, favqulodda vaziyatlarda ularniig oldini olish va harakat qilish davlat tizimi xodimlar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari, shuningdek fuqaro muhofazasi masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Insoniyat yaralibdiki u tabiatning lazzatlaridan bahramand bo'lish Bilan bir qatorda u keltrgan talofatlarga qarshi kurashib kelgan.

Lekin hamma vaqt ham ularning oldini olib bo'lmasligini yaxshi bilamiz. Yashash sharoiti zarur bo'lgan uy-joylar, zavod fabrikalar, korxona va muassasalar, idoralar, madaniy hordiq chiqarish binolari, mol-mulk, ozi - ovqat, xom-ashyo, va boshqa boyliklarni ham tabiat yetkazgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan zarardigina emas, balki o'z qo'li Bilan yaratgan ajal urug'laridan (ommaviy qirg'in qurollaridan) ham ximoya qilish zaruriyati tug'ildi..

O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida»gi qonunida «Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini –o'zi boshqarish organlari, shuningdek tashkilot va korxona raxbarlari axolini va

xududlarning favqulodda vaziyatlardan muxofazalanish holati xamda ularning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro'y bergan favqulodda vaziyatlar to'g'risida ulardan axolini muxofaza qilishning usul va yo'llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart» deb bayon etilgan.

Ayniqsa inson 20-asrda o'z qo'li Bilan yaratgan yadroviy,kimyoviy,bialogik hamda oddiy oddiy urush qurollari Bilan yer sharini bir necha marotaba yo'q qilib yuborilishi xavfi sodir bo'lishi mumkin bo'lган eng kata falokatdir.

Shu Bilan bir qatorda Fan va texnikaning keng rivojlanishi xalq xo'jaligida inson hayoti uchun xavfli bo'lган zaharli moddalardan (xlor, ammiak kabi), yadro reaktorlaridan tinchlik yo'lida foydalanish imkonini beradi. Lekin bulardan foydalanishda inson omili rol o'ynar ekan, hamma vaqt ham bexato ish bo'lavermasligining isbotini ko'plab keltirish mumkin. Buning uchun yaqqol misoli sifatida 1985yilda Ukrainianing CHernobil atom elektrostantsiyasini reaktorlarining biri ishdan chiqqan va atmosferaga katta miqdorda radiatsiyaning tarqalishi oqibatida minglab odamlar qurbon bo'lганini hammamiz yaxshi bilamiz.

Shunday ekan, hech qaysi davlat, hech qaysi yurt tabiy ofat, falokat va halokatlar xavfidan xoli emas. Bu degani demak, baribir ofatu-falokatlardan qutilishning imkoni yo'q ekan deb qo'l qovushtirib o'tirish emas, balki hayot uchun kurashish zarur ekan demakdir.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** - chaqiriqqacha bo'lган o'quvchi-yoshlarda fuqaro muxofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlari xaqdagi tushunchalarini shakllantirishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti:** - fuqaro muxofazasi fani o'qitish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** fuqaro muxofazasi fani mashg'ulotlarini o'tkazishni shakllantirishning mazmuni va metodikasi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi.** Ta’lim muassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini o’rganish samarali bo‘ladiki» Agar:

- fuqaro muhofazasi mashg’ulotlarini o’tkazish metodikasining optimal yo’nalishi to’g’ri aniqlansa;
- fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmunini o’rganish zamonaviy talablarga mofiq amalga oshirilsa;

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:** va ilmiy faraziga muvofiq quyidagi vazifalar hal etildi:

1. Favqulodda vaziyatlarning asosiy tushunchalari, huquqiy va ma’naviy asoslari yoritish;
2. Fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmunini o’rganish;
- 3.Ta’lim muassasalarida fuqaro muhofazasi faniga qo’yladigan assosiy talablar;

**Bitiruv malakaviy ishimizning tuzilishi va hajmi:** kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati iborat.

## **I-BOB Akademik litsey va kollejlarda. Fuqaro muxofazasi býicha mashg'ulotlarni tashkil qilish uslublari va maqsadi.**

### **1.1. Fuqaro muxofazasi fanini o'qitish va mashg'ulotlarni olib borish uslublari.**

Talabalar bilan fuqarolar muxofazasi (FM) darslari o'quv guruhlarida tayanch umumta'lim maktablarida o'tkaziladi.

FM kursini o'rganishda asosan 3 ta masala yechiladi: shu predmet bo'yicha o'quvchilarda mustaxkam bilimlarni hosil qilish, ularga jamoa va individual himoya vositalaridan foydalanishni o'rgatish va bu imoyalananish samarali ekanligi, haqida ishonchni tarbiyalash. O'quv metodikasi va masalalarni kompleks yechimlarini ta'minlashi kerak.

Darsning asosiy samaradorligi bu darsda o'quv ishini tashkil etish hisoblanadi. Bu asosan o'quvchini o'qituvchi qaramog'i ostida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi, mavzuni qisqacha qilib tushuntirgandan so'ng ko'proq vaqtni o'quvchini yangi abzats va tushunchalarni o'zlashtirishga, FM bo'yicha darsliklar bilan ishlashga, o'quv kinofilmlar ko'pgina, masala, misollar yechishga ajratish lozim.

O'quvchilarda ko'nikmalarni hosil qilish asosan amaliyot darslarda amalga oshiriladi. Ammo ma'ruza nazariya darslaridagi bilimlar xam amaliyotda qayta ishlanishi lozim, masalan, FM bo'yicha normativlar topshirish.

Darsni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'quv savollarini o'rgangandan so'ng nima qilishlarini aytish kerak (yozma konspekt, amaliy ishlari, qo'shimcha adabiyotlar). Bunday topshiriqlarni berilishi o'quvchilarni o'quv jarayonida faol qatnashishga turtki bo'ladi.

#### **Nazorat darslarni o'tkazish metodikasi va uni tashkil qilish.**

"FM meyoriy va xuquqiy hujjatlari" mavzusi bo'yicha darsni o'tkazishda o'qituvchi jadval va noxarbiy tuzilmalarni tashkil etish qonunlaridan foydalanadi. So'z boshida o'quvchilarga O'zbekistonning tinchlikparvar siyosati FMni tashkil etilishi, davlatimizning g'amxo'rliги haqida gapirib o'tishi lozim. SHu bilan birga O'zbekistonning jaxonni quolsizlantirishdagi siyosati, yerdagi

yadro qurollarini ko'paytirish musobaqasini to'xtatish lozimligini aytib o'tish lozim.

O'zRning Qurolli Kuchlari Vatanimizning asosiy ximoyasi bo'lsa, FM umum davlat muhofaza tadbirlari tizimini tarkibiy qismi bo'lib, aholini zamonaviy qirg'in qurollaridan himoyalanishini ta'minlaydi.

Bundan so'ng FM ga aniqlik berib, uning masalalarini vazifalarini va olib borayotgan rolini aytib o'tish lozm.

Xalq xo'jaligi ob'ekti FMning tashkiliy tuzilmasi va noharbiy tuzilmalar jadval va qutqaruv komandasini sxemasi asosida ko'rib chiqiladi. O'quvchilarni ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo'jaligi ob'ektlari, o'quv yurtlarida noharbiy tuzilmalarning vazifalari haqida gapirish, "Boshlang'ich harbiy ta'lif" darsligida ko'rsatilgan tarmoq tuzilmalarini tanishtirish va bu tuzilmalar kimyoviy va tibbiy mulkga, texnika va aloqa vositalarga ega ekanligi haqida ma'lumot berish kerak.

"FM xabar signallari radioaktiv kimyoviy zararlanish va bakterologik shikastlanish o'choqlarida odamlar xarakati qoidalari" mavzusida o'qituvchi darsni FM signallarini tanishtirish bilan boshlaydi. Diafilmlar ko'rsatiladi. Tomosha (ko'rik)dan so'ng, kechki vaqt oralig'ida aholi katta ish bajarish lozimligi aytildi, bu ishlar: nafas olish organlari va teri muxofazasi individual vositalarini olishi yoki o'zi qilishi, uy aptechkasini tayyorlash, himoya inshoatlari joylashgan joyni aniqlash yoki uni qurilishida qatnanish, o'z uyida himoya choralarini ko'rishi, suv va oziq ovqat extiyojini ko'rish, o'z binosini himoya vositalariga tayyorlash va o't o'chiruv, epidemiyaga qarshi tadbirlarda faol ishtirok etish xisoblanadi.

Axolini radioaktiv shikastlangan maydonlarda o'zini tutish qoidalari jadvallarda juda yaxshi ko'rsatilgan. "Radiatsiya xavfi" signali maxalliy radiodan, yana ovoz va rang aloqa vositalari orqali beriladi. Bu signaldan so'ng shaxsiy ximoya vositalari kiritiladi xujjatlar olinadi, zarur narsalar, oziq ovqat va suv zapasi, shaxsiy aptechka olinadi, uyda chiroq, gaz, suv o'chirilib, oyna va

eshiklar yopiladi va butun oila boshpanaga borishadi. So'ng dars raxbari jadvaldan foydalanib, axolini ximoya inshoatlariga kelish tartibini tushuntiradi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga shuni ma'lum qilish kerakki, ximoya inshoatlari yo'q bo'lgan joylarda boshpana bo'lib g'isht uylar, yerto'lalar va boshqa chuqur joylar bo'lishi mumkin. Agar o'sha joyda (institut, uy, ishxona) qolishga majbur bo'linsa bunda darov joyni germetezatsiyasiga o'tish lozim. Buning uchun deraza va eshiklarni yopish teshiklarni berkitish, eshik ichidan qattiq mato bilan yopish lozim. Zararlangan maydonda shaxsiy aptechkadagi birinchi radioximoya vositasini ichish lozim. Boshpanadan chiqish faqat FM maxalliy shtampli ruxsati bilan mumkin.

Qishloq xo'jaligi o'simliklarini muxofazasi quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi: tinchlik davrida chidamli o'simliklarni o'stirish: dori agroximiyaviy dori preparatlarini tayyorlash va zaxarli kimyoviy vositalarni zararkunanda kasalliklarga qarshi qo'llash. "Tabiiy ofat rayonlarida aholi xarakati" mavzusida raxbar tabiiy ofat va yirik ishlab chiqarish avariylariga ta'rif berib, ular katta zarar keltirish va axolini katta qismini talofat ko'rishiga olib kelishini ta'kidlaydi. So'ngra ogoxlantirish tartibi va unda aholixarakati tartibini tushuntiradi. Aholitabiyy ofat signalini bilishi, unga amal qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish, maxalliy boshqaruv organlarining axolini ximoyalash bo'yicha barcha ko'rsatmalarini bajarish shart.

Bu yerda asosiy fikrni tabiiy ofat oqibatini yo'q qilishda axolining roliga qaratish lozim.

O'rmon va torf yong'inini o'chirishda birinchi bo'lib yong'in razvedkasi tashkil etiladi. va u yong'in chegarasi va yo'nalishlarini aniqlaydi. Razvedka ma'lumotlari asosida qaror qabul qilinadi va yong'in o'chog'ini o'chirish bo'yicha vazifalar qo'yiladi. Yirik o'rmon yong'inlarini o'chirishda o'rmon yong'in tuzilmalari, FM tuzilmalari, xarbiy qismlar, kerak bo'lsa maxalliy aholijalb qilinadi. O'rmon yongnlari suv va o't o'chiruvchi qorishmalar yordamida o'chiriladi.

Torf yong'inlarida front oldidan chegaralar qo'yiladi, transheya va zovurlar qaziladi va vaqtinchalik vodoprovod truba quvurlari yong'in zonasiga o'tkaziladi.

So'ng raxbar zilzilada aholi xarakatini tushuntiradi. Zilzilada birinchi signallarni olgandan so'ng aholidarxol binoni tark etishi va bino qulamaydigan maydonga o'tib olishi kerak. vaqt bo'lsa gaz, issiqlik va elektr vositalari o'chiriladi. Zilzila oqibatlarini likvidatsiyasi paytida aholiuyumlarini yig'ishtirish yo'qolgan va shikastlanganlarni qidirish, palatkalar qurishga, tibbiy muassasalar, ovqatlanish punktlari va boshqa punktlarni qurilishida qatnashadi.

Keyinchalik axolini suv toshqin va sel paytidagi xarakati ko'rib chiqiladi. Bunda doimiy nazorat va tez habar berish tizimi o'rnatiladi. Suv bosgan o'quv va ish binolari va korxonalar o'z faoliyatini to'xtatib, tezkor evakuatsiyani amalga oshiradi. Aholi ham uy hayvonlarini olib o'tishda, suzish vositalarini tayyorlash va remontida faol ishtirok etadi. Kutilmagan suv toshqinida pastdag'i aholi yuqori etajlarga yoki cherdaklarga ko'tariladi va kerak bo'lsa suzish vositalaridan foydalanadi.

Toshqin maydonida odamlarni qidirish va qutqarish tezkor tashkil etiladi. Buning uchun vertoletlar, samoletlar, FMning turli suzish vositalari tuzilmalari va xarbiy qismlar jalb etiladi. Qutqaruv ishlari mobaynida qutqaruvchi so'zlariga qattiq bo'yishish lozim. Qutqaruvchilar suzishni bilishi, qutqaruv jeletini kiygan bo'lishi, cho'kayotgan odamga yordam ko'rsatishni bilishi kerak.

## **1.2.Favqulodda vaziyatlarning asosiy tushunchalari, huquqiy va ma'naviy asoslari.**

Vatanimizning milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligini qudratli intelektual salohiyatini ta'minlashda borilayotgan tadbirlar alohida o'rinnegallaydi.

Mustaqillik yillarida, prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov olib borayotgan siyosat negizida, aholi xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas'uliyatini va jamiyatning huquqiy zaminini belgilovchi bir qancha me'yoriy

hujjatlar qabul qilindi. mazkur, huquqiy hujjatlarning ko'pgina qismi, XX asr poyonida murakkablashib borayotgan turli xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning ta'rifi, tasnifi, kelib chiqish sabablari va sodir bo'lgudek bo'lsa, aholi xavfsizligi, inson salomatligini ta'minlashdek muhim tadbirlarga bag'ishlangandir. Bu bejiz emas albatta, chunki hozirgi sharoitda mamlakatimiz aholisini va iqtisodiy ob'ektlarni muhofaza qilishni yuksak darajaga ko'tarish, ularni tabiiy va texnogen xususiyatdagi turli falokatlardan saqlab qolish milliy davlat siyosatining o'stivor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. Bu esa turli favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash va aholini bunday xavflardan o'z vaqtida ogohlantirish borasida samarali tadbirlar o'tkazish, xafli vaziyat ro'y bergen taqdirda tezkor harakat qilish va xavfsizlikni ta'minlashni taqazo etadi.

Keyingi vaqtarda favqulodda vaziyatlar, dunyo miqyosida ko'payib borayotganligi, ko'pgina davlatlarning barqaror rivojlanishga jiddiy salbiy ta'sir yetkazmoqda. Binobarin, Vatanimiz hududlari ham turli favqulodda vaziyatlardan holi emas. O'zbekistonning iqlimi, tabiiy tuzilishi, tabiiy – geologik sharoiti, ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi o'ziga xos turli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi va tarqalishiga sabab bo'ladi. SHu bois, mazkur hududlarda iste'qomat qilayotgan aholini xavfsizligini ta'minlash o'ta dolzarb va muhim jabhalardan biridir.

Buni inobatga olgan hukumat, davlatimiz rahbariyati mazkur masala bilan maxsus shug'ullanuvchi organ Respublika Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etdi (1996 yil). Uning asosiy vazifasi: favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ro'y bergen taqdirda bartaraf etish, inson hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Albatta, bu vazifalarni bajarish birgina vazirlik va uning tasarrufidagi tarmoq, tashkilotlarining yagona vazifasi bo'lmay, mazkur hayrli ishda Respublikada mavjud bo'lgan barcha vazirlik va idoralar o'z faoliyati doirasida salmoqli ulush qo'shishlari shart. SHu bois, xukumatimiz tomonidan

"O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi (1997 yil). Mazkur qarorda har bir vazirlik, idora, tashkilot uchun o'z yo'nalishi bo'yicha aniq funktsiyalar belgilab qo'yilgan.

Eng muhimi, har bir tahbardan to kichik xodimgacha shu vazifalarni anglash, to'g'ri tushuntirish, ularni ijrosini ta'minlash talab etiladi.

Buning uchun favqulodda vaziyatlarning turli, tasnifi va tarqalish holatlari bilan bir qatorda, avvalo ular bilan bog'liq bo'lgan asosiy atamalar, tushunchalarning mazmuni, mohiyatini hamda shu sohaning huquqiy ma'yoriy hujjatlarini to'g'ri anglab unga amal qilish fuqarolarning muqaddas burchi hisoblanadi.

Uzbekiston Respublikasi "Fukoro muxofazasi tugrisidagi" konuni Uzbekiston Respublikasi Oliy majlis karari bilan 2000 yil 26 mayda 5-asosiy bobdan va 23 ta moddadidan iborat ishlab chikilgan.

- I. Umumiy koidalar.
- II. Fukoro muxofazasiga raxbarlik kilish, davlat organlari va tashkilotlarning fukoro muxofazasi soxasidagi vakolatlari.
- III. Fukorolarning fukoro muxofazasi soxasidagi xukuk va majburiyatlari.
- IV. Fukoro muxofazasi xizmatlari va kuchlari.
- V. Fukoro muxofazasini moliyaviy ta'minlash
- VI. Fukoro muxofazasi ob'ektlari va mol-mulki.

- 1 – modda: Asosiy tushunchalar;
- 2 – modda: Fukaro muxofazasi vazifalari;
- 3 – modda: Fukearo muxofazasi tugrisidagi konun xujjatlari;
- 4 – modda: Fukaro muxofazasi soxasidagi konun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik;
- 5 – modda: Fukarolar muxofazasi soxasidagi xarkaro xamkorlik
- 6 – modda: Fukaro muxofazasiga raxbarlik kilish;

7 – modda: Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Fukaro muxofazasi soxasidagi vakolatlari;

8 – modda: Fukaro muxofazasi soxasidagi maxsus vakolatlari davlat boshkaruv organi;

9 – modda: Vazirliklar va idoralarning fukoro muxofazasi soxasidagi vakolatlari;

10 – modda: Maxalliy davlat xokimiyati organlarining (tegishli) fukaro muxofazasi soxasidagi vakolatlari.

11 – modda: Tashkilotlarning fukaro muxofazasi soxasidagi vakolatlari;

12 – modda: Fukaro uzini – uzi boshkarish organlarining fukaro muxofazasi soxasidagi ishtiroki;

13 – modda: Fukarolarning fukaro muxofazasi soxasidagi xukuklari;

14 – modda: Fukarolarning fukaro muxofazasi soxasidagi majburiyatlar;

15 – modda: CHet el fukarolari va fukaroligi bulmagan shaxslarning fukaro muxofazasi soxasidagi xukuk va majburiyatlar.

16 – modda: Axoli va mutaxassislarni fukaro muxofazasi soxasida tayyorlash;

17 – modda: Fukaro muxofazasi xizmatlari;

18 – modda: Fukaro muxofazasi kuchlarining tarkibi;

19 – modda: Fukaro muxofazasi kushinlari;

20 – modda: Fukaro muxofazasi tuzilmalari;

21 – modda: Fukaro muxofazasini moliyalash;

22 – modda: Fukaro muxofazasi kushinlarining asosiy fondlari;

23 – modda: Fukaro muxofazasi ob'ektlari va mol-mulki.

### **Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik umumiyl tushunchalarining atamalari va ta'riflari.**

Favqulodda vaziyat (FV): Odamlar qurban bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof, tabiiy muhit zarar ko'rishiga, anchagina moddiy talofatga va insonlarning hayot faoliyati izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki

olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiat hodisasi, tabiiy va boshka ofat oqibatida muayyan hududda yuzaga kelgan sharoit.

Izoh: FV kelib chiqish sabablariga (manbalariga) binoan "tabiiy", "texnogen", "ekologik" deb tavsiflanadi xamda bunday sharoitda jabrlangan kishilar, moddiy zarar miqdori va ko'lam (zonaning chegaralari)ning qanchaligiga qarab, cheklangan, mahalliy, respublika va transchegarali favqulodda vaziyatlarga bo'linadi.

Aholini va xududlarni FVda muhofaza qilish:  
Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish choralar, usullari, vositalari, xatti xarakatlarining majmui.

Favqulodda vaziyatlarling oldini olish: Oldindan o'tkaziladigan va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfini iloji boricha maksimal darajada kamaytirishga, shuningdek bunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda odamlar sog'ligini saqlab qolishga, atrof tabiiy muhitga yetadigan zarar va moddiy talafot miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyat zonalarini cheklash va xavfli omillar ta'sirini to'xtatishga qaratilgan avariya - qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni tugatish: Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda o'tkaziladigan hamda odamlar hayotini qutqarib va sog'ligini saqlab qolishga, atrof tabiiy muxitga yetadigan zarar va moddiy talafot miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyat zonalarini cheklash va xavfli omillar ta'sirini to'xtatishga qaratilgan avariya - qutqarish va boshqa shoshilinch ishlar kompleksi.

Izoh: Ijtimoiy – siyosiy mojarolarni va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish xarakatlari, shuningdek favqulodda vaziyatlar okibatida shikastlangan ob'ekt va xududlarni qayta tiklash FVDT vakolatlari (vazifalari)ga kirmaydi.

Hudud: Yer, suv maydoni, havo fazosi yoki uning - bir qismi, ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar, shuningdek atrof tabiiy muxit.

Favqulodda vaziyat manbai: Favqulodda vaziyat yuz bergen yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli tabiiy hodisa, avariya yoki xavfli texnogen hodisa, odamlarning, qishloq xo'jaligi hayvonlari va

o'simliklarining keng tarqalgan infektsion (yuqumli) kasalliklari, shuningdek hozirgi zarba vositalari ishlatilishi natijasi.

Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik: FV da xavfsizlik: Aholining, xalq xo'jaligi ob'ektlari va atrof tabiiy muxitning favqulodda vaziyatlardagi xavflardan muxofazalanganlik holati.

Izoh: Turiga binoan sanoat, radiatsion, kimyoviy, seysmik, yong'in, biologik, ekologik xavfsizlik, ob'ektlariga binoan axoli, xalq xo'jaligi ob'ekti, atrof tabiiy muxit xavfsizligi favqulodda vaziyat manbalariga binoan xavfsizlik bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash:

Aholini, xalq xo'jaligi ob'ektlari va boshqa ob'ektlarni, atrof tabiiy muhitni favqulodda vaziyatlardagi xavflardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy normalarni qabul qilish va ularga rioxalash, ekologik muhofazalash, tarmoq yoki idora talablari va qoidalarini bajarish, shuningdek tashkiliy, iqtisodiy, ekologik himoya, sanitariya- gigiena, sanitariya-epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksini o'tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligi: Odamlar xayoti va sog'ligining, ular mulkining va odamlar istiqomat muxitining favqulodda vaziyatlardagi muhofazalanganlik ahvoli.

Favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash: Favqulodda vaziyat yuzaga kelgan taqdirda odamlar hayoti va sog'ligining xavfda qolishi, ularning mulki talofat ko'rishi va hayotiy faoliyat sharoitlarining izdan chiqishini oldining olinishiga yoki bunday xavf nisbat kamaytirilishiga qaratilgan xuquqiy normalarga rioxalash, ekologiya muxofazalash, tarmoq yoki idora talablari va qoidalarini bajarish, shuningdek huquqiy, tashkiliy, sanitariya gigiena, sanitariya - epidemiologik va maxsus tadbirlar kompleksini o'tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda muhofazalanganlik aholi, xalq xo'jalik ob'ektlari va atrof tabiiy muxit uchun favqulodda vaziyatlarda potentsial xavflar yuzaga kelishining negativ oqibatlarining oldini olinadigan, ularni yengib

o'tiladigan yoki nihoyatda kamaytiriladigan holat.

Favqulodda vaziyatlardagi xavf: Favqulodda vaziyat zonasida axoliga, xalq xo'jaligi ob'ektlariga va atrof tabiiy muhitga favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi omillari va ta'sirlari yuzaga kelish xavfi tug'ilgandagi yoki shunday xavf ehtimoli bo'lgandagi xolat.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelish xavfi: Favqulodda vaziyat manbaining tegishli xavf ko'rsatkichlari bilan belgilanadigan yuzaga kelish ehtimoli yoki takrorlanish tezligi.

Favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi omili: Xavfli hodisa yoki jarayonning favqulodda vaziyat manbai keltirib chiqargan va tegishli parametrlar bilan belgilanadigan yoki ifodalanadigan fizik, kimyoviy va biologik harakatlar yoki amallar tavsiflab beradigan tarkibiy qismi.

Izoh: Shikastlovchi omillar birlamchi va ikkilamchi bo'ladi.

Favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi ta'siri: Favqulodda vaziyat manbai bitta shikastlovchi omilining yoki shikastlovchi omillari majmuining odamlar hayoti va sog'lig'iga, chorva mollari va o'simliklarga, xalq xo'jaligi ob'ektlari va atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir etishi.

Zamonaviy zarba berish vositalar (ZZV): Harbiy harakatlarda qo'llanishi odamlar, chorva mollari va o'simliklar nobud bo'lishiga, aholi salomatligining izdan chiqishiga, xalq xo'jaligi ob'ektlari, atrof tabiiy muhit elementlarining vayron bo'lishi va shikastlanishiga, shuningdek iqlamchi shikastlovchi omillar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelayotgan harbiy qo'shinlar ixtiyoridagi jangovar vositalar.

Favqulodda vaziyatlarda jabrlangan kishi:

Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi okibatida shikastlangan yohud moddiy zarar ko'rgan odam.

Favqulodda vaziyatlarda shikastlangan kishi: Favqulodda vaziyat manbaining ta'sir etishi oqibatida kasallangan, lat yegan yoki yaralangan odam.

Favqulodda vaziyat zonası: Favqulodda vaziyat manbai yuzaga kelishi yoki uning oqibatlari boshqa joylardan yetib kelishi natijasida favqulodda vaziyat yuzaga kelgan hudud yoki ekvatoriya.

Ehtimoli bor Favqulodda vaziyat (ETV) zonası: Favqulodad vaziyat yuzaga kelish xavfi mavjud bo'lgan yoxud buni inkor etib bo'lmaydigan hudud yoki akvatoriya.

SHahardan tashqari zona: Ehtimol bo'lgan favqulodda vaziyat zonası chegaralaridan tashqarida bo'lib, potentsial xavfli xalq xo'jaligi va boshqa ob'ektlari bor aholi punktlari uchun belgilanib, evakuatsiya qilinadigan aholini joylashtirishga tayyorlab qo'yilgan hudud.

SHikast o'chogi: Zamonaviy zarba berish vositalari ta'sir etishi oqibatida ichkarisida odamlar, chorva mollari va o'simliklar ommaviy halok bo'lgan va shikast topgan, imorat va inshootlari, shuningdek atrof tabiiy muhit elementlari vayron bo'lgan yoki zararlangan chegaralangan

Cheklangan favqulodda vaziyat: FV oqibatida 10 dan kam kishi zararlangan, yohud 100 dan kam kishining hayotiy faoliyat sharoitlari izdan chiqqan, yohud favqulodda vaziyat yuzaga kelgan kundagi moddiy zarar ko'pi bilan 1 ming eng kam ish haqidan oshmaydigan va favqulodda vaziyat zonası ishlab chiqarish ob'ekti yoki ijtimoiy ob'ekt hududi chegarasidan chiqmaydigan favqulodda vaziyat.

Mahalliy favqulodda vaziyat: FV oqibatida 10 dan ortiq, lekin ko'pi bilan 500 kishi zararlangan, yoxud 100 dan ortiq, lekin ko'pi bilan 500 kishining xayotiy faoliyat sharoitlari izdan chiqqan, yohud favqulodda vaziyat yuzaga kelgan kundagi moddiy zarar 1 mingdan ortiq, lekin ko'pi bilan 0,5 million eng kam ish haqidan oshmaydigan va favqulodda vaziyat zonası aholi punkti, shahar, tuman, viloyat chegarasidan chiqmaydigan favqulodda vaziyat.

Respublika favqulodda vaziyati: FV oqibatida 500 dan ortiq kishi zararlangan, yohud 500 dan ortiq kishining hayotiy faoliyat sharoitlari izdan chiqqan, yohud favqulodda vaziyat yuzaga kelgan kundagi moddiy zarar 0,5

millionta eng kam ish haqidan ortadigan va favqulodda vaziyat zonasini viloyat chegarasi tashqarisiga chiqadigan favqulodda vaziyat.

Transchegarali Favqulodda vaziyat: Oqibatlari mamlakat chegarasini tashkarisiga chiqadigan, yohud chegaradan tashqarida sodir bo'lib, O'zbekiston hududiga ta'sir etadigan favqulodda vaziyat.

Tabiiy favqulodda vaziyat: Odam qurbon bo'lishiga, odamlar sog'ligi va (yoki) atrof tabiiy muhit zararlanishiga, anchagina moddiy talafotga va odamlar hayotiy faoliyat sharoitlari izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan tabiiy favqulodda vaziyat manbai yuzaga kelishi oqibatida muayyan xudud yoki akvatoriyada tarkib topgan sharoit.

Izoh: Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbaining xarakteriga va o'zining ko'lamiga qarab farqlanadi.

Tabiiy favkulodda vaziyat manbai: FV oqibatida muayyan hudud yoki akvatoriyada favqulodda vaziyat sodir bo'lgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli tabiiy hodisa yoki jarayon.

Havfli tabiiy hodisa (XTH); Intensivligi, tarqalishi va davom etish ko'lamigi ko'ra odamlarga, iqtisodiyot ob'ektlari va atrofdagi tabiiy muhitga shikastlovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, tabiiy hosil bo'lgan yoki tabiiy jarayonlar faoliyati natijasi bo'lgan hodisa.

Tabiiy ofat: FV oqibatida odamlar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan yoki xavf tutilgan, moddiy boyliklar va atrof tabiiy muxit tarkibiy qismlari vayron yoki yakson bo'lishi mumkin bo'ltan tabiiy va (yoki) tabiiy — antropogen (adam sababli) hodisa yoki miqyosi kattagina jarayon.

Tabiiy-texnogen halokat: Atrof tabiiy muxit tarkibiy qismlariga ega bo'lgan texnologik ob'ektlardagi normal o'zaro ta'sir buzilishi natijasida rivojlanib, odamlar halokatiga, iqtisodiyot ob'ektlari va atrof tabiiy muxit tarkibiy qismlari vayron bo'lishi va shikastlanishiga olib keladigan halokatli jarayon.

Texnogen favqulodda vazshiyat: Ob'ektida, muayyan hudud yoki akvatoriyada texnogen favqulodda vaziyat manbai yuzaga kelishi natijasida

odamlarning normal hayot va faoliyat sharoiti izdan chiqadigan, ularning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'iladigan, axoli punkti, axoli mulkiga, xalq xo'jaligiga va atrof muxitga zarar yetadigan sharoit.

Izoh: Texnogen favqulodda vaziyatlar ularning yuzaga kelgan joyiga va favqulodda vaziyat manbaining asosiy shikastlovchi omillari xarakteriga qarab farqlanadi.

Texnogen favqulodda vaziyat manbai: FV oqibatida ob'ektda, muayyan xudud yoki akvatoriyada texnogen favqulodda vaziyat sodir bo'lgan xavfli texnogen xodisa.

Izoh: Sanoat ob'ektlaridagi yoki transportdagi avariylar, yong'inlar, portlashlar yoki har xil energiya turlarining bo'shab chiqib ketishi xavfli texnogen hodisalarga kiradi.

Avariya: Ob'ektda, muayyan xudud yoki akvatoriyada odamlar xayoti va sog'lig'iga xavf soladigan xamda imoratlar, inshootlar, uskuna va transport vositalari vayron bo'lishiga, ishlab chiqarish yoki transport jarayoni izdan chiqishiga, shuningdek atrofdagi tabiiy muxitga zarar yetkazilishiga olib keladigan xavfli texnogen hodisa.

Izoh: Odatda odamlar qurban bo'ladigan yirik avariya xalokat xisoblanadi.

Halokat: Odamlarning qurban bo'lishiga, ularning sog'lig'iga zarar yetishiga yoxud ob'ektlar, moddiy boyliklar anchagina miqdorda vayron va yakson bo'lishiga sabab bo'lgan, shuningdek atrofdagi tabiiy muxit jiddiy zararlanishiga olib kelgan xavfli texnogen hodisa.

Texnogen xavf: Texnik tizimga, sanoat va transport ob'ektiga ichdan xos bo'lib, yuzaga kelganida odamga va atrof muxitga texnogen favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi ta'siri ko'rinishida, yoxud bu ob'ektlar normal ishlatilishi jarayonida odam va atrof muhit uchun bevosita yoki bilvosita zarar ko'rinishida amalga oshadigan holat.

Potentsial xavfli ob'ekt; PXO: Favqulodda vaziyat manbai yuzaga kelishi real xavfini tug'diruvchi radioaktiv, yong'in- portlash xavfi, xavfli kimyoviy va biologik moddalar qayta ishlanadigan, ishlatiladigan, ishlab

chiqariladigan, saqlanadigan va tashiladigan ob'ekt.

Atrof muhit monitoringi; Monitoring: Atrof muhit axvoliga baho berish, unda bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilish va undagi o'zgarish tendentsiyalarini o'z vaqtida aniqlab berish uchun muayyan programmaga muvofiq muntazam olib boriladigan kuzatuv va nazoratlar tizimi.

Favqulodda vaziyatlarni oldindan bashorat qilish; FV ni oldindan bashorat kilish: -Favqulodda vaziyat yuzaga kelishining extimol bo'lган sabablarini, uning ilgarigi va xozirgi manbaini taxlil qilish asosida favqulodda vaziyat yuzaga kelishi ehtimolini va rivojlana borishini oldinroq aks ettirish.

Izoh: Oldindan bashorat kilish uzoq muddatli, qisqa muddatli yoki operativ xarakterda bo'lishi mumkin.

Birinchi tibbiy yordam; BTYo: SHikastning zararlangan kishi hayotiga xavf soluvchi oqibatlarini bartaraf qilish va hayot uchun xatarli asoratlar oldini olish maqsadida ro'yxatdagi yoki mavjud yordam berish vositalarini ishlatib, jaroxatlangan (shikastlangan, kasallangan) joyning o'zida o'ziga o'zi (o'zo'ziga) yoki boshqa kishi (bir biriga) ko'rsatadigan eng jo'n tibbiy tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarda aholi turmush kechirishini ta'minlash; FV da axolining turmush kechirishini ta'minlash (FVA TKT): Hududiy va idoraviy boshqaruv organlarining, kuch, vosita va tegishli xizmatlarning favqulodda vaziyat zonasida, evakuatsiya marshrutlarida va jabrlangan aholini ko'chirib qo'yish (vaqtincha ko'chirib turish)- joylarida odamlar hayotini saqlab qolish va sog'lig'ini saqlab turish uchun kerakli sharoit yaratishga qaratilib, maqsadi, vazifalari, joyi va vaqtin jihatidan kelishib olingan va o'zaro bog'liq faoliyatlar majmui.

Atrof muhit: Odamning unga va ob'ektlarga birgalikda va bevosita ta'sir etuvchi tabiiy muxit, ishlab chiqarish, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy muhit elementlaridan iborat istiqomat va ishlab chiqarish faoliyati vositalarining majmui.

Xavfga baho berish: Xavfni va uning ehtimol bo'lgan manbalarini identifikatsiyalash, ularning yuzaga kelish mexanizmini tadqiq qilish, identifikatsiya qilingan xavfli hodisalar yuzaga kelish ehtimoliga va ularning oqibatlariga baxo berish.

**II-BOB. Aholi va xududlarni Favqulodda vaziyatdan himoyalashning  
«Me'yoriy va huquqiy hujjatlari».**

**2.1. Fuqaro muxofazasi qonunining ishlab chiqilishi va amalga kiritilishi.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

1996 yil 4 mart № 1378 Toshkent sh.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA  
VAZIYATLAR VAZIRLIGINI TASHKIL ETISH  
TO'G'RISIDA

Aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini tabiiy ofatlardan muho-faza qilishniig samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fuqaro muddafaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilsin.

2. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi hara-katlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT) ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish; Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklarning aholini va milliy boyliklarini muhofaza qilish, avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga, aholini, mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda ular vujudga kelgan taqdirda xalq xo'jaligi ob'ektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga, shuningdek aholini, mansabdar shaxslarni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishniig davlat tizimi tuzilmalarini tayyorlashga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlar oqibatlarii bartaraf etish uchun moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zahira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish; vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar buyicha xalqaro hamkor-likni tashkil etish.

3. Aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza etishni ta'minlashga rahbarlik qilish:

O'zbekiston Respublikasida O'zbekistoi Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'riibosari favqulodda vaziyatlar vaziriga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda Qoraqapnog'iston Respublikasi Vazirlar Keigashi Raisiga va tegishli hududlarning hokimlariga; vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda vazirlarga, davlat qo'mitalari va uyushmalar, boshqaruvlari raislariga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning direktorlari va boshliqlariga yuklansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Favquloda vaziyaglar vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mavjud fu

qaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar hududiy organlari negizida favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari)ni tashkil etsinlar,

Ushbu bandning bajarilishi to'g'risida 1996 yilning 15 aprelijacha axborot bersinlar.

5. Belgilab qo'yilsinki:

favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari) Favqulodda vaziyatlar vazirligining tarkibiy bo'linmalarini hisoblanadi va Qoraqalpog'iston Respublikasya Vazirlar kengashining, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining boshqarmalari (bo'limlari) huquqida ishlaydi;

favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari) boshliqlari lavo-zimlariga ko'ra Qorakalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, tegishli hududlar hokimlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar fuqaro muhofazasi boshliqlarining o'rinnbosarlari hisoblanadilar;

favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari) boshliqlari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadilar.

6. Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari ni bajarish vazirliklar, idoralar, uyushmalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Favqulolda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida bir hafta muddatda qaror qabul qilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.Karimov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI

1999 yil 20 avgust № 824-1

Toshkent sh.

AHOLINI VA HUDUDLARNI TABIIY HAMDA, TEXNOGEN  
XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHI  
TO'G'RISIDA

I. Umumiy qoidalar

1-modda, Ushbu Qonunning maqsad:

Ushbu qonun aholini va qududlarli tabiiy xamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishiniig oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

2-modda, Asosiy tushunchalar

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

favqulodda vaziyat odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishn mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, qalokat, xavfli tabiiy qodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan xududda yuzaga kelgan vaziyat;

- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish chorralari, usullari, vositalari tizimi, sa'yharakatlari majmui:

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish oldindan o'gkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigai zarar va moddiy talafotlar miqdoring kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'liginini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigai zarar va moddiy talafotlar mikdorini amaytirishga, shuningdek

favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar ta'sirinn tugatishga qaratilgan avariya qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

3-modda. Favqulodda vaziyatlardai muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari aholini va hududlarli favqulodda vaziyatlardan muhofaza kilish sohasidagi qonun hujjatlar ushbu qonundan va boshqa. qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

4-modda, Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy prin-tsiplari Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- insonparvarlik,, inson hayoti va sog'ligining ustuvorli;
- oshkoraliq;
- axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi;
- favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oddindan ko'rinishi,

5-modda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot aholini va hududdarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot, agar qonunda boshqacha joyda nazarda tutilgan bo'lmasa, oshkora bo'ladi,

Davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muho-fazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralar haqida,

oldindan bashorat qilinayotgan va ro'y bergan favqulodda vaziyatlar to'grisida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo'llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart.

Mansabdar shaxslar tomonidan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotning yashirilishi, o'z vaqtida takdim etilmasligi yoki bila turib yolgon axborot taqdim etilishi ularning qonun hujjatlariga muvofiq javobgarligiga sabab bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot bilan ta'minlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## II. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi

6-modda. Favqulodda vaziyatlariing oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi Favqulodda vaziyatlarniig oldini olish va bunday vaziyatlarda qarasalalariga oid talablar bajarilishini nazorat qilib borishlari;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishlari shart.

Vazirliklar va idoralar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxati belgilab qo'yiladigan, potentsial xavf manbai bo'lgan ob'ektlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar shtat lavozimlarini joriy etadilar. Boshqa ob'ektlarda esa mas'ul shaxslar tayinlanadi,

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

- favqulodda vaziyatlar chog'ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;

- aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to'planishi va almashinilishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar

taxdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida aholi o'z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar;

- idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda barqaror ishslash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlar kuchlari va vositalarining qay holatda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

- avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo'lgan zonalarda qutqaruв ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruв kuchlari va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo'lib turishini tashkil etadilar;

- avariya-qutqaruв ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuniigdek bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saqlanishiga ko'maklashadilar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar,

11-modda, Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatları

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

- xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarни rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;

- xavf manbai yuqori bo'lgan obъektlar xavfsizligi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari;

- xodimlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida harbiylashtirilmagan tuzilmalar

tarkibida muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

- xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishlari;

- favqulodda vaziyatlar sharoitida ob'ektlar ishi hamda xodimlar hayot faoliyati barqaror kechishini ta'minlashlari;

- muhandislik-himoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

- favqulodda vaziyatlar ro'y berish ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarinn yaratishlari;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi ob'ektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;

- belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjom bilan to'ldirishlari;

- belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari uchun oldindan bazalar tayyorlab qo'yishlari;

- belgilangan tartibda, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

12-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

- aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, ijtimoiy va madaniy ob'ektlarning sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga yordam beradilar;

- fuqarolarni favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalg qiladilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni amalga oshiradilar..

13-modda. Jamoat birlashmalarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki

Jamoat birlashmalari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishlari mumkin.Jamoat birlashmalari favqulodda vaziyatlar manbalari va ularni bartaraf etish choralari to'g'risida davlat hokimiyat va boshqaruv organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda axborot olish huquqiga ega.

14-modda, Favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan bashorat qilish

Favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan bashorat qilish tabiiy ofatlarni, texnoei avariylar va halokatlarni tekshirish va nazorat qilish maxsus xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar monitoringini o'tkazish va ularni oldindan bashorat qilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### III. Fuqarolarni huquq va majburiyatlari

15-modda. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquqlari

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

- favqulodda vaziyat ro'y berganda hayotlari, sog'liqlari va shaxsiy mol mulklari muxofazalanishi;

- umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan, mahalliy hokimiyat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlariing favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish uchun mo'ljallangan boshqa mol-mulkidan foydalanish;

- mamlakat hududiniig muayyan joylarida bo'lganda ular duch kelishi

mumkin bo'lgan xavf-xatar darajasi to'g'risida hamda zarur xavfsizlik choralari haqida xabardor bo'lish;

- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat etish;

- favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarda ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar olish;

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish mobaynida majburiyatlarini bajarish chog'ida sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchui kompensatsiyalar hamda imtiyozlar olish;

- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog'ida orttirgan kasalligi munosabati bilan mehnat qobiliyatini yo'qtganda, nogironligi mehnatda mayib bo'lish oqibatida kelib chiqqan xodimlarga belgilangan tartibda pensiya ochish;.

- boquvchisini aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog'ida orttirgan mayiblik yoki kasallikdan halok bo'lganligi yoki vafot etganligi munosabati bilan yo'qtganda, mehnatda mayib bo'lish tufayli halok bo'lgan shaxsning oila a'zolari uchui belgilangan tartibda pensiya olish. Davlat ijtimoiy sug'urtasi tartibi va shartlari, kompensatsiyalar va imtiyozlar turlari va miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

16-modda. Fuqarolarnii favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatları;

Fuqarolar:

- xavfsizlik choralariga rioya etishlari, ishlab chiqarish va texnologiya intizomi, ekologik xavfsizlik talablari favqulodda vaziyatlar ro'y berishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzilishiga yo'l qo'ymasliklari;

- muhofaaalanishning asosiy usullarini, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini o'rganishlari hamda o'z bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishlari;

- favqulodda vaziyatlar ro'y berishga olib kelishi mumkin bo'lgan avariylar, ofatlar va halokatlar taxdididan darak beruvchi alomatlar borligi to'g'risida tegishli organlarga xabar berishlari;
- favqulodda vaziyatlar taxdid solgan va boshlangan sharoitlarda ogohlantirish belgilarini, yurish-turish qoidalari va harakat qilish tartibini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish usullarini bilishlari;
- zarurat bo'lganda avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydi-gan boshqa ishlarni o'tkazishda yordamlashishlari shart.

17-modda, Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquq va majbu-riyatları;

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el davlatlarining fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar.

18-modda. Aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat kilishga o'rgatish umumiy va majburiydir.

-Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda hara-kat qilish davlat tizimi rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish muassasalarida, kurslarda, maxsus o'quv-uslubiyat markazlarida va ish joyida amalga oshiriladi.

Aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

19-modda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bi-limlarni targ'ib etish;

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ'ib etish davlat organlari, shuningdek odamlarni muhofaza qilish va qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalarini tomonidan ta'minlanadi. Bilimlarni targ'ib etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foy-dalanish mumkin.

#### IV. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish

20-modda. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar hududi va ob'ektlarida bunday vaziyat ro'y bergan korxona, muassasa va tash-kilotlarning vazirlik, idora va hokimliklarning kuchlari hamda vositalari bilan amalga oshiriladi. Zarurat bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda qo'shimcha kuchlar va vositalar ajratiladi.

21-modda. Favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarning chegaralarini belgilash; Favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarning chegaralari davlat organlarining, korxona, muassasa va tashkilotlarning tegishli rahbarlari tomonidan Favqulodda vaziyatlar tasnifiga muvofiq belgilanadi.

22-modda. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarinish tugatilishi

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha qutqaruv, avariya ishlari va boshqa ishlar tegishli organlar qaroriga binoan tugatiladi,

Favqulodda vaziyat bartaraf etilganidan so'ng davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, fuqarolarning hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarning hayot faoliyatini tiklash tadbirlarini amalga oshirishlari shart,

23-modda. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan kuchlar tarkibi; Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan kuchlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining harbiy ixtisoslashgan avariya-qutqaruv bo'linmalari, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining tegishli tuzilmalari hamda bo'linmalaridan iborat.

Mazkur bo'linmalar tarkibi hamda ularni qo'llash tartibi qonun huj-jatlari bilan belgilanadi,

24-modda. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ichki ishlar organlari kuchlari va vositalarining qo'llanilishi

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchui ichki ishlar organlarining kuchlari va vositalari qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

25-modda. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun qo'shinlar va harbiy tuzilmalarni jalb etish

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan Qurolli Kuchlarning, boshqa qo'shinlar va harbiy tuzilmalarning kuchlari va vositalari jalb, etilishi mumkin.

#### V. Yakuniy qoidalar

26-modda. Favqulodda vaziyaglarni bargaraf egish uchun moliyaviy va moddiy rusurslar.

27-modda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidan qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Aholini va hududlarni

-favqulodda vaziyatlyardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. Karimov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY MAJLISINING

Q A R O R I

1999yil20avgust

№ 825-1

Toshkent sh.

«Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror kiladi:

1.«Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'grisidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilsin.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xukumat qarorlarini «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiqlashtirsin. vazirliklar va idoralar ushbu qonunga zid bo'lgan o'z normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlansin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi  
E.Xalilov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASINING  
Q A R O R I

1996 yil 11 apreль № 143

Toshkent sh.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH  
MASALALARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida» 1996. yil 4 martdagি PF-1378-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi nizom va uniig tuzilmasi I, 2, 2a-2v-ilovalarga muvofiq tasiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Mudofaa vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir

oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga favqulodda vaziyatlarda ishlarni bajarish uchun faoliyat ko'rsatib turgan tuzilmalarniig moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek tashkil etilayotgan maxsus tuzilmalarniig tuzilmasi, joylashishi, moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti to'g'risida taklif kiritsin.

2.Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi xodimlariniig umumiy soni 1785 nafar, shu jumladan ma'muriy-boshqaruв xodimlari soni 540 nafardan iborat etib belgilansin.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparati xodimlarining cheklangan soni 80 nafar, shu jumladan 35 nafar ofitserdan iborat etib belgilansin (binolarni qo'riqlash va ularga xizmat ko'rsatish xodimlaridan tashqari).

Favqulodda vaziyatlar Vaziriga vazirlikning tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soning mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

3.O'zbekistsn Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga Vazirining uch nafar o'rribosariga, shu jumladan bir nafar bиринчи o'rribosariga hamda shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan 9 kishidan iborat hay'atga ega bo'lishga ruxsat etilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, toifalangan shaharlar va tumanlar hokimliklarining favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo'limlari) namunaviy tuzilma-lari 3, 4 va 5-ilovalarga muvofiq tayinlansin.

Xat boshi maxfiy Favqulodda vaziyatlar bo'yicha ko'rsatib o'tilgan boshqarmalar (bo'limlar) va ularning bo'linmalarini zarur» binolar, telefon aloqasi va boshka aloqa, mol-mulk, inventar, avtotransport bilan ta'minlash va ularning joylashishiga yordam ko'rsagish uchun shaxsan javobgarlik Qoraqalpogistop Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar, toifalangan shaharlar va tumanlar hokimlari zimmasiga yuklansin.

5.Vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar, birlashmalar va

korxonalar tuzilmasidagi xalq xo'jaligi ob'ektlarining fuqaro muhofazasi bo'yicha mavjud xizmatlar va shtatdagi lavozimlarni tugatsinlar.

6. Belgilab qo'yilsinki;

Favqulodda vaziyatlar vazirlngi tizimini mablag bilan ta'minlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

7. Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari, xodimlari va mutaxassislari xizmatni o'tash, mehnatga haq to'lash, tibbiy va maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida, shu jumladan ularning oila a'zolari ham, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari, xodimlari va mutaxassislarining tegishli toifalariga tenglashtirilsinlar.

8. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, «Uzkimyosanoat» uyushmasi, Toshkeit shahar hokimligi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrdagi 269-son qaroriga muvofiq Mudofaa vazirligi tarkibiga kirgan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 1996 yil I aprel-gacha bo'lgan holatiga ko'ra xodimlari soni, muassasalari va o'quv yurtlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi shtabining moddiy-texnika bazasi va asosiy fondlari bilan birgalikda, shuningdek 6-ilovaga muvofiq tashkilotlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligiga ber-sinlar, Vazirlik esa ularni belgilangan tartibda qabul qilib olsin.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda 1996 yil 1 iyungacha shoshilinch ishga kirishuvchi aviatsiya otryadini tashkil etsin, uni belgilangan normalargacha uchish apparatlari, uchuvchilar va texnik xodimlar bilan butlasin.

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan uchish apparatlaridan foydalanish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

10. «O'zavtotrans» davlat korporatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda 1 iyungacha mavjud avtokorxonalar negizida shoshilinch ishga

kirishish respublika» (Qoraqalpog'iston Respublikasi), viloyatlar va Toshkent shahar avtotransport otryadlari tuzsin, ularni zarur avtomobil texnikasi, tuzatish va xizmat ko'rsatish bazasi bilan butlasin. Ko'rsatib o'tilgan avtotransport otryadlarini favqulodda vaziyatlar davrida jalg etish shartnoma asosida amalga oshirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga favqulodtsa vaziyatlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish davrida:

Mudofaa vazirligining fuqaro muhofazasi qo'shinlari kuchlari va vositalariga; Ichki ishlar vazirligining harbiylashtirilgan yong'indan saqlash respublika ixtisoslashtirilgan otryadiga;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining SHoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish respublika markaziga;

«O'zavtotrans» davlat korporatsiyasining shoshilinch ishga kirishish avtotransport otryadlariga amaliy rahbarlik qilish yuklatilsin.

12. «O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi, «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasi, «O'zavtotrans» davlat korporatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi buyurtmanomalari bo'yicha favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish uchun zarur bo'lgan avariya-qutqarish xizmati, harbiy qismlar kuchlari va vositalari hamda yuklarning favqulodtsa vaziyatlar yuzaga kelgan joylarga birinchi navbatda olib borilishi hamda qaytarib olib kelinishini ta'minlasinlar.

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga zarur bo'lgan hollarda ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi boshqa vazirliklari va idoralarining transport vositalarini jalg qilishga ruxsat etilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Energetika va elektrorashtirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat geologiya qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, «O'zsanoat-

kontexnazorat» davlat qo'mitasi, Fanlar Akademiyasi, «O'zbekneftgaz» korporatsiyasi. «O'zkimyosanoat» uyushmasi va «Boshgidromet» boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini hududlar, ob'ektlardagi tabiiy-iqlim, ekologik, epidemiologik, epizootik, geologik va texnologik vaziyat hamda ularning yaqin davrda va istiqbolda o'zgarishi ehtimollari to'g'risidagi axborot bilan muntazam ravishda, favqulodda vaziyatlarda esa darhol ta'minlasinlar.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ko'rsatib o'tilgan vazirliklar va idoralar bilan birgaliqda ikki oy muddatda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning joylardagi organlarini tegishli axborot bilan ta'minlash tartibi, muddatlari va shakllarini belgilasin.

#### 14. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

Favqulodda vaziyatlar vazirligini va uning bo'linmalarini respublika aholisi va hududini muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish, bevosita xavf to'g'risida davlat boshqaruvi organlarini xabardor qilish uchun hamda alohida davr uchun boshlang'ich ma'lumotlar bilan ta'minlasin;

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tegishli bo'lgan qurol-yarog va tex-nikani tuzatish ishlarini shartnoma asosida amalga oshirsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Mudo-faa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi. Sog'liqni saqlash vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 1996 yil I iyungacha favqulodda vaziyatlarda davlat boshqaruvi organlari, koptsernlar, korporatsiyalar va uyushmalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodtsa vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini (FVDT), shuningdek shoshilinch qutqarish xizmati yagona davlat tizimini yaratish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin,

16.«O'zistiqbolstat» davlat qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ob'ektlari qurilishi va rekonstruktsiya qilinishining adresli dasturlarini ko'rib

chiqsinlar.

17. O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligi, Milliy xazfsizlik xizmati, Vazirlar Mahkamasining Hukumat aloqasi xizmati Vazir va uning o'rinosbosarlariga hukumat ATSi, «VCH», hukumat shaxarlararo va boshqa aloqa turlarini o'rnatgan holda, Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarmalari va bo'limlarini telefonlashtirishni ta'minlasin,

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga favqulodda vaziyatlar davrida umumdavlat va idoraviy aloqa tarmoklaridan ustun tartibda foydalanishga ruxsat etilsin.

18. «O'zbekengilsanoat» davlat uyushmasi 1996 yilning ikkinchi choragida Favqulodda vaziyatlar vazirligining buyurtmanomasi bo'yicha uning shaxsiy tarkibi uchun formal kiyim namunasini ishlab chiqsin va tayyorlab bersin.

19. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur qaromi amalga oshirish uchun mablag'lar, to'rtta avtomobil xarajatlari uchun limit ajratsin va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligini mablag' bilan ta'minlash rejasiga tegishli o'zgartirishlar kirtsin.

20. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Moliya vazirligi, davlat soliq qo'mitasi bir oy muddatda Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli qorxonalar va tashkilotlarga, bo'sh qoladigan mablag'larni ularning moddiy-texnika bazalarini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadida, soliq imtiyozlari berishni ko'rib chiqsinlar va bu to'g'rida takliflar kirtsinlar.

21. Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga Mustaqillik maydoni, 6-uydan joy ajratsin.

22. «Toshshaharyo'lovchitrans» davlat uyushmasi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga xizmat ko'rsatish uchun 4 ta yengil avtomashina ajratsin.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Favqulodda vaziyatlar bo'yicha komissiyasi kotibiyati Vazirlar Mahkamasining besh nafar xodimdan

mudir, mudir o'rribosari, ikkita katta ekspert va katta inspektordan iborat bo'luvchi Favqulodda vaziyatlar bo'limiga aylantirilsin, unga O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va davlat boshqaruv organlarining fuqaro muxofazasi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish masalalariga oid faoliyatlarini muvofiqlashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

24. Fuqaro mudofaasi va favkulodda vaziyatlar bo'yicha raxbar xodimlar tayyorlash respublika markazi O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi institutiga aylantirilsin.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi institutining tuzilmasi va xodimlari soni to'g'risida ikki hafta muddatda taklif kiritsin.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 apreldagi 169-sun qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

26. O'zbekiston respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatiga tegishli bo'lган amaldagi qonunchilik hujjatlari va normativ hujjatlarni o'zgartirish hamda yangilarini chiqarish to'g'risida bir oy muddatda takliflar tayyorlasinlar va Vazirlar Mahkamasiga kiritsinlar.

27. Mazkur qarorning bajarilishiii nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rribosari - Favqulodda vaziyatlar vaziri I.H.Jo'rabekov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I.Karimov

Vazirlar Mahkamasining  
1996 yil 11 apreldagi 143-son qaroriga 1-  
ilova

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda  
vaziyatlar vazirligi to'g'risida

N I Z O M

1.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o'rirlarda - FVV) fuqaro muxofazasi, avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ularni muvofiklashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblanadi,

2.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga va Oliy Majlisning boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taalluqli masalalarga doir xalqaro shartnomalarga, shuningdek, mazkur Nizomga amal qiladi.

3.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o'z faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, tabiatni muhofaza qilish va maxsus vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

4.Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyaglar vazirligining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek, tinchlik va urush vaqtida favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish

hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi xattiharakatlarni boshqarishining davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va faoliyatini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududida aholini, mamlakat xududini, respublikaning milliy boyligi bo'lgan ob'ektlarni muhofaza qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibat-larini bartaraf etish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni tashkil qilish hamda amalga oshirish;

Vazirliklar, idoralar, Koraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining aholini va milliy boyliklarni muhofaza qilish, avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish, yirik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish, ushbu maqsad uchun zarur bo'lgan kuch va vositalarni tashkil etish va ularning tayyorligini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga, aholini, mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan takdirda xalq xo'jaligi ob'ektlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish va amalga oshirish;

moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zahira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish;

aholini, FVDT mansabdor shaxslarini va tuzilmalarini favqulodda vaziyatlardagi harakatlarga tayyorlashni tashkil etish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish.

5. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishni va amalga oshirishni tashkil etadi;

FVDT faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

O'zbekistoi Respublikasi fuqaro muhofazasi rejalarini loyihalarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga belgilangan tartibda taqdim etadi;

Vazirlikning faoliyat sohasi masalalari bo'yicha davlat maqsadli dasturlarining .davlat buyurtmachisi vazifasini belgilangan tartibda amalga oshiradi;

fuqaro muxofazasi, favqulodda vaziyatlarning, shu jumladan, halo-katlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid normativ hujjatlar va boshqa xujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishini tashkil etadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

fuqarolar muhofazasi bo'yicha belgilangan normativ talablarning bajarilishi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, boshqaruv organlarining, FVDT kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda qidiruv-qutqaruv, avariya-qutqaruv va boshqa dolzarb ishlarni bajarishga tayyorligining ahvoli ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

shaharsozlik hujjatlarining hamda ob'ektlarni qurish loyihalarining fuqaro muxrfazasi talablariga rioya qilish va favqulodda vaziyatlarning oldini olishga oid qismini davlat ekspertizasidan o'tkazishda qatnashadi;

manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda tabiiy va texnogen tusdag'i favqulodda vaziyatlarning vujudga kelishi mumkinligini oldindan aniqlash, ularni modellashtirish, O'zbekiston Respublikasi hududlarini xavfli ishlab chiqarishlar, ob'ektlar hamda tabiiy ofatlar xavfi mavjudligi bo'yicha rayonlashtirish, xalq xo'jaligi ob'ektlarida va hududlarda tavakkalchilik

darajasining normativ ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda joriy etish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi va muvofiqlashtirib boradi;

zilzila, ko'chki, sel, toshqin va boshqa tabiiy ofatlarni, shuningdek texnogen tusdagi avariya va halokatlarni kuzatish hamda oldindan aniqlash tizimining faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini muvofiqlashtirib boradi;

vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalar tarkibini, ularni joylashtirish va jihozlashni aniqlaydi, o'quv va sog'lomlashtirish markazlarini tashkil qiladi;

favqulodda vaziyatlarii tezkorlik bilai cheklash va bartaraf etishga doir ishlarni bajarish uchun doimiy tayyor bo'lib turuvchi avariya-qutqaruв bo'linmalarini tuzish, tayyorlash va ulardan foydalanishni tashkil etadi;

aholini favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabardor qilishni tashkil etadi, xabardor qilishning tegishli hududiy va mahalliy tizimlarining tashkil etilishini va ishslashini nazorat qiladi;

fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarining favqulodda vaziyatlar bo'yicha hududiy boshqaruв organlari va bo'linmalari tomonidan bajarilishiga bevosita rahbarlik qiladi, ularning safarbarlik tayyorgarligiii re-jalashtiradi va tashkil etadi;

vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining odamlarni qidirish va qutqarish, avariya-qutqaruв ishlarini o'tkazish, neft, neft mahsulotlari, zararli kimyoviy, radioaktiv va boshqa moddalarning to'kilishiii bartaraf etish, tabiiy ofatlar va halokatlar oqibatlarini tugatish bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirib boradi;

respublika rahbariyatining topshirig'iga binoan vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan aholini sel, ko'chki, suv bosish xavfi bo'lgan joylardan ko'chirish, yangi turar joylarda ular uchun zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, shuningdek,

ushbu joylardan ko'chirilgan fuqarolar uchun uy-joylar, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi ob'ektlari qurish bo'yicha topshiriqlarning bajarilishini nazoat qiladi;

6. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga quyidagi huquqlar beriladi:

vazirliklar, idoralar, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qatyi nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar bajarishi majburiy bo'lgan fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlar, avariylar va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirib borish uchun zarur bo'lgan qarorlarni belgilangan tartibda, o'z vakolati doirasida qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklardan, mulkchilik shakllaridan qatyi nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan Vazirlikka yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarni belgilangan tartibda talab qilish va olish;

vazirliklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar va ob'ektlarni o'z vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha tekshirishlarni belgilangan tartibda o'tkazish;

mamlakatimiz va chet el mutaxassislarini hududlarni, xavf-xatar mavjud bo'lgan ob'ektlar va ishlab chiqarishlarni davlat ekspertizasidan o'tkazishga jalb etish;

avariya-qugqaruv texnikasini yaratish, avariya va halokatlardan zarar ko'rgan aholini va hududlarni sog'lomlashtirish va tiklashga doir ishlarni amalga oshirish yuzasidan ish bajaruvchilar (firmalar) bilan, shu jumladan, xorijlik ish bajaruvchilar (firmalar) bilan belgilangan tartibda kontrakt (shartnomalar)lar tuzish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklar bilan kelishilgan holda, boshqa sohalardagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish

ishlarini amalga oshirish uchun doimiy tayyorgarlikning zarur hududiy kuchlari va vositalarini jalg etish to'g'risida qarorlar qabul qilish.

7. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparati hamda unga qarashli tashkilotlarning harbiy xizmatchilari harbiy xizmatda turadilar.

Ular O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirliga normalari bo'yicha xarbiy xizmatchilarga, shu jumladan, ularning oila a'zolari ham, qonun hujjatlari bilan belgilangan ta'minotning barcha turlaridan, huquqlar va imtiyozlardan foydachanadilar.

8. Favqulodda vaziyatlar vazirligining boshqaruvi organlarini, tuzilmalari va muassasalarini harbiy xizmatchilar bilan butlash Favqulodda vaziyatlar vazirligining buyurtmanomasiga binoan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining zabitlarini, praporshiklarini va muddatli xizmat harbiy xizmatchilarini tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy harbiy va maxsus o'quv yurtlarida hamda boshqa davlatlarning o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Bosh vazirning birinchi o'rribosari Vazir boshqaradi.

Vazirning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan uch nafar o'rribosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rribosari bo'ladi.

10.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri o'ziga yuklangan faoliyat sohasiga rahbarlikni yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi va Vazirlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi uchu\* shaxsan javob beradi.

11.Favqulodda vaziyatlar vaziri:

Vazirlik hamda unga qarashli korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatiga rahbarlik qiladi, O'zbekiston Respublikasining davlat va

boshqa organlari hamda tashkilotlarida, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda Vazirlik nomidan vakillik qiladi;

Vazir o'rinnbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ularni javobgarlik darajalarini hamda Vazirlik tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining javobgarlik darajalarini belgilaydi, belgilangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Vazirlik markaziy apparatining tuzilmasini va shtatlar ro'yxatini shuningdek tegishli davr uchun tasdiqlangan byudjet ajratmalari doirasida ularni mablag' bilan ta'minlash xarajatlari smetasini tasdiqlaydi; buyruqlar, direktivalar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi; Vazirlikning oliv ofitserlar tarkibi ishlaydigan lavozimlar ro'yxati to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

O'zbekistoi Respublikasi Prezidentiga ko'rib chiqish uchun favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparatida va unga qarashli tashkilotlarda oliv ofitserlar tarkibi ishlaydigan lavozimlarga tayinlashlar to'g'risida hamda xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni lavozimdan ozod qilish to'g'risida, ularga oliv ofitserlar tarkibi harbiy unvonlari berish to'grisida, ularni harbiy xizmatdan bo'shatish to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

Mudofaa vazirligining ofitserlar tarkibi uchun belgilangai tartibda va muddatlarda ofitserlarga polkovnik uni ham qo'shgan holda darajasigacha harbiy unvonlar beradi;

favqulodda vaziyatlar hududiy boshqarmalari (bo'linmalari) boshliqlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari bilan kelishgan holda lavozimiga tayinlaydi;

Vazirlik tizimining alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini davlat mukofotlari bilan taqdirlash hamda ular faxriy unvonlar berish, shuningdek, idoraviy mukofotlar ta'sis etish to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

xodimlarni, shuningdek harbiy xizmatchilarni xizmat safarlariga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi xizmat safarlariga, belgilangan tartibda yuboradi;

Favqulodda vaziyatlar vazirligini mablag' bilan ta'minlash uchun ajratiladigan kreditlarning bosh tasarrufchisi hisoblanadi;

davlat byudjeti hisobidan ajratilgan moddiy mablag'larni hamda xizmat resurslari, uchun belgilangan muddatni o'tab bo'lган moddiy-texnik vositalarni ro'yxatdan chiqarishga oid hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiklaydi, ob'ektlar, texnik vositalar, asbob-uskunalar va qurol-yarog'larga doir ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha loyihalash va texnik xulosalar berish yuzasidan topshiriqlarni tasdiqlaydi;

avariya-qutqaruv tuzilmalari uchun qurol-yarog'larning, texnika va texnik vositalarning yangi turlarini loyihalash yuzasidan topshiriqlarii, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari uchun taktik-texnik topshiriqlarni tasdiklaydi.

12. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida tarkibida Vazir (hay'at raisi), lavozimi bo'yicha vazir o'rinnbosarlari, Vazirlikning hamda unga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, shuningdek, boshqa vazirliklar va idoralarning rahbar xodimlari bo'lган 9 kishidan iborat hay'at tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hay'ati a'zolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi, lavozimiga ko'ra hay'at tarkibiga kiruvchilar bundan mustasiodir.Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan hayotga tadbiq etiladi.

13.Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkeit shahrida belgilangan tartibda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, toifalangan shahar va tumanlarda esa favqulodda vaziyatlar bo'limlari tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi.

14.Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimini mablag' bilan ta'minlash xarajatlari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

15.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi vako-latiga kiritilgan muhim muammolarga oid tavsiyanomalarni ko'rib chiqish va tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

xuzurida ilmiy-texnika kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibiga manfaatdor davlat ijro etuvchi hokimiyat organlari, ilmiy tashkilotlar va jamoat birlashmalarining vakillari kirishi mumkin. Ilmiy-texnika kengashi tarkibi va uning to'g'risidagi Nizom Vazir tomonidan tasdiklanadi.

16. Favqulodda vaziyatlar vazirligining shaxsiy tarkibi maxsus kiy-im-bosh formasiga, emblemaga va farqlovchi belgilarga ega bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining texnika va transport vositalari uning emblemasi tasviri tushirilgan holda maxsus rangga bo'yaladi.

17. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, banklarda va boshqa kredit muassasalarida hisob-kitob schetiga hamda boshqa schetlarga ega bo'la-di.

Vazirlar Mahkamasining

1996 yil 11 apreldagi 143-sod qaroriga 2-ilova

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar  
vazirligining tuzilmasi

## I. Vazirlilikning markaziy apparati

- 1.Rahbariyat
- 2.Tashkiliy-operativ boshqarma
- 3.Avariya-qutqaruv kuchlari boshqarmasi
- 4.Aholini va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasi
- 5.Moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi
- 6.Aloqa, xabar berish xizmati va ABT
- 7.Rejim va xavfsizlik bo'limi
- 8.Moliya-iqgisodiyot bo'limi
- 9.Kantselyariya
10. Kadrlar bo'limi

## **II. Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridaga ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'limlari**

- 1.Xo'jalik bo'limi
- 2.Kapital qurilish va tuzatish bo'limi
- 3.Bosmaxona
- 4.Garaj
- 5.Tibbiyot bo'limi

## **III. Markazga bo'yсинувчи муассасалар ва бо'линмайлар**

- 1.68305-harbiy qism (alohida aloqa batalboni)
- 2.Favqulodda vaziyatlar vazirligi aloqa uzeli
- 3.Kimyo-radiometrik laboratoriya
- 4.Tez harakat qilish respublika ko'p profilli markazi
- 5.Tez harakat qilish yig'ma otryadi
- 6.Markaziy aeromobilъ otryadi (MAO)
- 7.Fuqaro muhofazasi instituti
8. Shahar tashqarisidagi boshqaruv punkti

Qoraqalpog'stans Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Toifalangan shaharlar va tumanlarda - favqulodda vaziyatlar bo'limlari

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**VAZIRLAR MAHKAMASINING**

1997yil 23 dekabr

№ 558

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va  
haoakat qilish davlat tizimi to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida» 1996 yil 4 martdagি PF-1378-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilishi (1, 2- ilovalar) tasdiqlansin.

2. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalar 3-ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralariga yuklansin.

3. Vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 3 oy muddatda FVDTning funktional va hududiy quyi tizimlari to'g'risidagi Nizomlarni ishlab chiqsinlar va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasinlar.

4. Maxfiy.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirinitsg birinchi o'rinnbosari I.H.Jo'rabekov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I.Karimov

Vazirlar Mahkamasining

1997 yil 23 dekabrdagi 558-son

qaroriga 1-ilova

O'zbekistoi Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda  
ularning oldini olish va harakat qilish  
davlat tizimi to'g'risida  
nizom

1.Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning asosiy vazifalari, uni tashkil etish, uning tarkibi hamda faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2.FVDT boshqaruvi organlari. respublika va mahalliy hokimiyat organlarini. aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiramagan korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va xarbiy davrda davlat iqqisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo'ljallangan.

3.FVDT organlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasiga, qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari va ko'rsatmalariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va mazkur Nizomga amal qiladilar.

4.Quyidagilar FVDT ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1 Favqulodda vaziyat muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarniig qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi yoki atrof-tabiyy muxitga ziyon yetkazishi, kishilarniig xayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar xamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lган yoki olib kelgan avariya, halokat. stixiyali yoki ekologik ofat, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar natijasida yuzaga kelgan qolat.

- Hudud - bu yer, suv, havo makoni yoki uning bir kismi, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi ob'ektlar, shuniigdek, atrof-tabiyy muhit.

3 Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - bu Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan xamda odamlarni qutkarish va kishilar sog'ligini saqlash, atrof-tabiyy muhitga zararning hamda moddiy zararlarning miqdorlarini kamaytirish, shuningdek Favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslix, ular uchun xavf bo'lган xavfli omillar ta'sirini bartaraf etishga yo'naltirilgan avariya-kutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy mojarolar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish. shuningdek, Favqulodda vaziyatlar okibatida zararlangan ob'ektlar va hududlarni tiklash harakatlari FVDT vakolatiga kirmaydi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy yo'nalishdagi ob'ektlarni hamda hududlarni sug'urtalash,

### Qieil Yarim oy Jamiyati

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, boshqa vazirliklar (idoralar) va sog'liqni saqpash organlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyatlar chog'ida kasallar va zarar ko'rganlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish hamda g'amxo'rlik. qilish masalalari bo'yicha tayyorlash.

Vazirliklar, idoralar, mahalliy boshqaruv organlariga xamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga sanitariya drujinalarini tuzish, ularni yuklatilgan vazifalarni bajarishga jihozlash, tayyorlash va tayyorgarlik xolatini nazorat qilishda yordam ko'rsatish.

Xalq ta'limi va sog'liqni .saqlash organlari bilan birgalikda o'rta maxsus o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida sanitariya postlarini tashkil etish va o'qitish.

Ichki ishlar vazirligi, eng avvalo, davlat avtomobil nazorati xodimlarini kursantlar, haydovchilar va yo'l-transport xizmati ish-chilarini zarar ko'rganlarga dastlabki tibbiy va boshqa yordam ko'rsatish amaliyotiga kontrakt asosida o'qitishni tashkil etish,

Sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish, o'zaro, o'z-o'ziga xamda zarar ko'rganlarga g'amxo'rlik qilishga o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan teleko'rsatuvarlar va adioeshittirishlarni tashkil etish.

Qizil Yarim oy Jamiyatining otryadlari va boshqa ko'ngillilar bo'lin-malarini tuzish, o'qitish, jihozlash.

Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun Qizil Yarim oy Jamiyatining eng zarur tovarlar omborlari va zahiralari tizimini tashkil etish.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QAR ORI**

1998 yil 7 oktyabrb  
№ 427 Toshkent sh.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
AHOLISINI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN  
MUHOFAZA QILISHGA TAYYORLASH TARTIBI  
TO'G'RISIDA**

Mamlakat aholisi va hududiy tabiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan keyingi o'rnlarda - favqulodda vaziyatlar deb ataladi muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi aholisi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalarda, muassasalarda (shu jumladan, ta'lim muassasalarida) va tashkilotlarda, shuningdek yashash joyida ularning yoshlari va ijtimoiy guruxlari bo'yicha o'tkaziladi.

3.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ishtirojida davlat ta'lim standartdari va umumta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ularga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish minimumi kiritilishini nazarda tutilsin,

4.Davlat matbuot qo'mitasi, «O'zteleradio» kompaniyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qizil Yarim.oy Jamiyati markaziy qo'mitasi, respublika davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish soxasidagi bilimlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda keng tashviqot qilinishini ta'minlasinlar.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rribosari I.H.Jo'rabekov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri

O'.Sultonov

Vazirlar Mahkamasining  
1998 yil 7 oktyabrdagi  
427-sod qaroriga ilova

Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash  
tartibi to'g'risida

n i z o m

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini tabiiy va tex nogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

2. Quyidagilar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lган aholi, umumta'lim maktablari va idoraviy bo'ysunishi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qatyi nazar boshlang'ich, o'rta va oliy kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, respublika va viloyat bo'ysunishida bo'lган shaharlar va tumanlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllaridan qatyi nazar birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari hamda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi mutaxassislari

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lмаган aholi favqulodda vaziyatlyardan muhofaza qilish sohasida tayyorgarlikdan o'tishlari lozim.

3.. Quyidagilar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

aholining barcha guruhlariga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish qoidalarini va asosiy usullarini, jabrlanganlarga biriichi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini, jamoa va yakka tartibda himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini o'rgatish;

boshqaruvniig barcha darajadagi rahbarlarini aholini Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalari, tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash va ularni boshqarish ko'nikmalarini hosil qilish favqulodda vaziyatlarda harakat qilishda xodimlarning o'z vazifalarini amaliy egallashi.

4.Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholini tayyorlash ish joylarida mashg'ulotlar o'tkazish va tavsiya qilinadigan dasturlarga muvofiq favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni mustaqil ravishda o'rganish, keyinchalik o'quv mashqlarida va mashg'ulotlarda olingan bilimlar va malakalarni mustahkamlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.Umumta'lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarining o'quvchilarini, o'rta va oliv o'quv yurtlarining talabalarini tayyorlash favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasidagi umumta'lim dasturlariga muvofiq o'qish vaqtida amalga oshiriladi.

Dasturlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi,

#### 6. Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari - O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rindbosari Respublika fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan o'tkaziladigan har yilgi yig'inlar, o'quv mashqlari va mashg'ulotlarda;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Fuqaro muhofazasi institutida;

harbiylashtirilmagan qo'shilmalarining rahbarlari, boshliqlar tarkibi, avariya-qutqaruv, harbiylashtirilgan va doimiy tayyor maxsus qo'shilmalar tarkibidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlari favqulodda vaziyatlar bo'yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarida, shuningdek o'quv mashqlari va mashg'ulotlarda;

harbiylashtirilmagan qo'shilmalar tarkibidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlari bevosa ish joylarda tayyorlanadi.

7. Aholining favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasidagi tayyorgarligini tekshirish maqsadida komanda-shtab, taktik-maxsus va kompleks o'quv mashqlari, va mashg'ulotlar muntazam o'tkaziladi.

Uch kecha-kunduzgacha davom etadigan komanda-shtab o'quv mashqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarida 5 yilda bir marta, shaharlar va tumanlarda 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Komanda-shtab o'quv mashqlari yoki mashg'ulotlar vazirliklar va idoralarda, korxnalar, muassasalar va tashkilotlarda bir yilda bir marta o'tkaziladi va bir kecha-kunduz davom etadi.

Komanda-shtab o'quv mashqlarini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga to'g'ridan-to'g'ri va operativ bo'ysinadigan harbiy qismlar va avariya-qutqarish kuchlarining operativ guruxlari belgilangan tartibda jalb etilishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar qo'shilmalarining olti soatgacha davom etadigan taktik-maxsus o'quv mashklari 3 yilda bir marta, tayyorgarligi oshirilgan qo'shimalari bilan har yili o'tkaziladi.

Ikki kecha-kunduzgacha davom etadigan kompleks o'quv mashqlari xodimlari soni 300 dan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hamda 600 dan ortiq o'ringa ega bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarida 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Boshqa tashkilotlarda 6 soatgacha davom etadigan mashg'ulotlar 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Umumiy o’rtalim maktablari hamda boshlang’ich, o’rtalim va oliy kasb-hunar ta’limi muassasalari o’quvchilari bilan mashg’ulotlar har yili o’tkaziladi.

8.Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohasida band bo’lmagan aholini tayyorlash favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish masalalari bo’yicha suhbatlar o’tkazish, lektsiyalar o’qish, o’quv fil’mlari ko’rish, yashash joyida o’quv mashqlari va mashg’ulotlarga jalb etish, shuningdek qo’llanmalar va eslatmalarni mustaqil o’rganish, radio eshittirishlarni tinglash, teledasturlarni ko’rish orqali amalga oshiriladi.

9.O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasida aholining tayyorgarligida tashkiliy-uslubiy rahbarlikni, ishlarni muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Fuqaro muhofazasi institutida va favqulodda vaziyatlar bo’yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash hududiy markazlarida o’qitish dasturlari hajmi va davriyligini belgilaydi.

10. Favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasida o’quv mashqlariga va mashg’ulotlarga jalb qilinadigan fuqarolar:

o’quv mashqlari va mashg’ulotlar davomida o’zlari duch kelishi mumkin bo’lgan xavf to’g’risida xabardor qilinish;

o’quv mashqlari va mashg’ulotlarda sog’lig’ita yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya olish;

o’quv mashklari va mashg’ulotlarda qatnashish davrida o’kuv mashqlari va mashg’ulotlarni rejalashtiruvchi va o’tkazuvchi tashkilotlar hisobiga ish joyida o’rtacha ish haqi saqlab qolinishi huquqiga ega bo’ladilar.

11. Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlashni, shuningdek davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tomonidan o’tkaziladigan favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasidagi o’quv mashklari va mashg’ulotlar tashkil etilishini mablag’ bilan ta’minlash davlat byudjeti mablag’lari hisobiga amalga oshiriladi.

Hududiy harbiylashtirilmagan qo'shilmalar tarkibida rahbarlarni tayyorlash va xodimlarni o'qitish, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan o'tkazilayotgan o'quv mashqlari va mashg'ulotlar, shuningdek ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'limgan aholini o'qitish mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

1998 yil 27 oktyabrъ № 455 Toshkent sh.

TEXNOGEN, TABIIY VA EKOLOGIK  
TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNING  
TASNIFI TO'G'RISIDA

Aholi va tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri  
O'.Sultonov

yilning 18 yanvarida qabul qilgan 32-sonli «O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ushbu maqsadlarda samaradorlikni oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk boshqa uy qayvonlarini saklashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Qarovsiz qolgan it, mushuk va boshqa hayvonlarni hamda qirib tashlash va ularni tayyorlov tashkilotlar foydalanish uchun yetkazib berish vazifasi

shaharlarda O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazir; Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shaxar hokimliklar xamda O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining joylardagi korxonalariga, qishloq joylari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga, veterinariya xizmati organlariga, o'zini o'zi boshqarishning mahalla, ovul va shaharcha organlar (fuqarolar yig'ini)ga yuklatiladi.

Davlat standartlari. O'zbekiston Respublikasi aholisini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatlari turli halokatlardan muhofaza borasida olib borilayotgan keng ko'lamlari tadbirlar orasida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish hozirgi kunning eng dolzARB masalalardan biridir. Mana shunday muhim xujjatlardan biri davlat standartlari hisoblanadi.

Davlat standartlari tashkilotlar, muassasalar, idora va ilmiy dargohlarda ish yuritish, amalda qo'llash favqulodda vaziyatlarning yagona tizimiga asos yaratish fuqaro muhofazasi instituti xodimlari tomonidan va nechta standartlar tayyorlangan:

1. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik, Asosiy tushunchalarning atamalari va ta'riflari» (O'z DSt g981:2000).
2. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar»
3. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar» ( O'z DSt 014:2002).
14. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Atamalar va ta'riflar» (O'z DSt; 1015:2002).
15. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va progaozlash. Asosiy qoidalar» (O'z DSt 1016:2002).

I 6. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar va ular ko'rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi» (O'z DSt 1017:2002).

I 7. «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar. SHikastlovchi ta'sir ko'rsatkichlarining nomenklaturasi»( O'z DSt O81 1018:2002).

Barcha davlat va nodavlat tashkilotlari joriy hujjatlarini ishlab chiqilgan standart talablari asosida muvofiklashtirishlari va ularga tayanib ish yuritishlari talab qilinadi.

Shunday qilib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasining huquqiy asosini (tashkil etuvchi hujjatlar bilan tanishib chiqdik. Bu hujjatlar talablarini chuqur bilmasdan turib favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini samarali amalga oshirib bo'lmaydi, Har bir rahbar xodim, har bir fuqaro muhofazasi bo'yicha mutaxassis bu hujjatlarni qilib, o'rganibgina qolmay, zarur bo'lgan vaziyatlarda ulardan kelib chiqadigan talablarni amalda qo'llay bilishi lozimdir.

## **2.2. Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatdan muxofaza qilishning huquqiy asoslari.**

Vatanimizda sodir bo'layotgan buyuk o'zgarishlar, mustaqil davlatchilikning shakllanishi, jamiyat rivojlanishining yuksalishi jahon andozalariga mos keluvchi qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish asosida olib borimoqda.

Xususan, aholi xavfsizligini ta'minlash, insonlar salomatligini yuksak darajaga ko'tarish masalalari bo'yicha ham bir qancha qonuniy hujjtlar qabul qilindi. Jumladan, «Aholini va xududlarni tabiy hamdatexnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning asosiy maqsadi –aholini va xududlarni xamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish soxasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talofatlarni kamaytirish va

favqulodda vaziyatlarni bartaf etishdan, «Gidrotexnika inshoatlaring favqulodda vaziyatlar xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonuni- gidrotexnika inshoatlarini loyihalashtirish, qurish, tiklash, konservatsiyalash va tugatish xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish, «Fuqaro muxofazasi to‘g‘risida»gi Qonuni-fuqaro muxofazasi soxasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoalarini, davlat organlaring, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning xuquqlari va majburiyatlaini, shuningdek fuqaro muxofazasi kuchlari va vositalarini belgilashdan va «Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonunini- radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog‘ligi va mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muxofaza qilishni ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Buqonunla tom ma’noda hozirgi zamonda aholi va xududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilishning yagona huquqiy asosini belgilaydi.

Ularning amaldagi harakati maxsus qo‘llanmalar va davlat standartlari asosida olib boriladi.

Bu borada. Fuqaro muxofazasi Institutining xodimlari maxsus izlanish olib borib, 2000 yilda yuqorida qayd qilingan davlat standartlarini tasdiqdan o‘tkazdilar. Navbatdagi asosiy vazifa har-bir tashkilot, idora, ilmiy va adabiy yozishmalarda mazkur standartlarga to‘la rioya qilishni ta’minalashdan iboratdir.

Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida fikr bildirar ekanmiz ularning ma’naviy va ma’rifiy asoslari negiziga e’tibor berish maqsadga muvofiqli. CHunki, Vatanimiz xududlarida o‘tmishda ham turli tabiiy ofatlar sodir bo‘lgan va hozirda him davom etyapdi. Farqi shundan iboratki inson tomonidan tabiiy manbalarni o‘zlashtirish oqibatida «tabiyat va insoniyat» tizimida muvozanat buzilib, noxush vaziyatlar yildan yilga keng ko‘lamli, ko‘p tarmoqli va murakkab xususiyatni nomoyon qilmoqda. Tarixdan ma’lumki, ota-bobolarimiz ham tabiiy jarayonlarni kuzatishlar, yillararo takkoslash, davriyigini aniilash

orgali xavfsizlikni ta'minlash uchun ma'lum chora tadbirlarini qo'lashgan. Bizning davrimizgacha etib kelgan ma'naviy durdonalar, xalq maqollari hali hanuz hayot xavfsizligi tadbirlarini amalga oshirishda dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan «xushyor bo'lsang, ofat ko'rmaysan», “Falokat oyoq ostidadur”, Saqlansang sog‘ qolasan, Saqlanganni saqlayman, Sinch uyim - tinch uyim vash u kabi hayotiy tajribadan o'tgan iboralar borki, yillar o'tgan sari ularning qadr - qimmati ortib borsa boradiki, aslo tushmaydi. Hozirgi vaqtida milliy ma'naviyat to‘g‘risida turli fikrlar bildirilar ekan, ma'naviy kamolotga etaklovchi axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiyada bebeho mulk hisoblanmish ota-bobolarimiz hayot tajribasi va qomusiy allomalarimizning nodir asarlarida bitilgan tarixiy merosni o‘z o‘rnida va har tomonlama hayotga tadbiq etishimiz zarur. Zero, buyukligimizning asosi ham boy tarixiy merosimizdadur. Muqaddas kitoblarda bitilgan sog‘lom va tinch osuda turmush kechirish tamoyillarini hozirgi kun talabida izohlab, har bir ishga tadbiq etilsa, birinchidan bizgacha bo‘lgan tarixga e’tibor, undan unumli foydalanish, ota-bobolarning buyuk me’rosiga hurmatni yuzaga keltirsa, ikkinchidan hozirgi vaqtida murakkab jarayonlar zaminida kechayotgan hayotimizda uchrab turadigan nohush holatlarni engil engib o‘tishga mukammal tyyorgarlik ko‘rishga va yuksak ma'naviyatga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos axamiyat kasb etadi.

### **III-BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARI**

#### **3.1. Tajriba-sinov ishlarining nazariy mazmuni.**

Tajriba-sinov ishlarining puxta, mukammal ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida olib borilishi tadqiq etilayotgan muammoning ijobiy echimga ega bo'lishini kafolatlaydi va muammo yuzasidan bildirilayotgan nazariy g'oyalarning ilmiy jihatdan asoslanishini, amaliy ahamiyatining haqqoniyligini ta`minlaydi.

Ta'lismuassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlari muammosini tadqiq etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borishda yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayanib ish ko'rildi. Dastlab tajriba-sinov ishlarini olib borish yuzasidan maxsus dastur va ishchi reja ishlab chiqildi.

Maxsus dasturda ta'lismuassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlari yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad, bu borada hal etilishi ko'zda tutilgan vazifalar, tajriba-sinov ishlarining tashkil etilish bosqichlari, har bir bosqichning xususiy maqsadlari, ularning nazariy tahlilini o'tkazilish shartlari kabi holatlar o'z ifodasini topdi. Quyida maxsus dasturning mazmuni haqida so'z yuritiladi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsad – ta'lismuassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratuvchi pedagogik shart-sharoitlar va omillarni aniqlab chiqishdan iborat. Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan ko'zlangan maqsadga erishish quyidagi pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish hisobiga ta`minlandi:

1. Ta'lismuassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga doir suhbatlar tashkil etish, ijtimoiy so'rov yoki anketa so'rovlarini o'tkazish.

2. Ta'lismuassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga

to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.

3. Ta'lim muassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirish jarayonining samaradorligini ta`minlovchi shakl, metod va vositalarni aniqlash.

4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga oid maxsus metodikani tajriba sinovidan o'tkazish.

5. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlar bilan fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga erishish.

6. Chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlada fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga oid maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtirish, tahlil etish va qayta ishlash.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi;

1. Chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarda fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining o'tkazilishini ta`minlovchi tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi. Unda chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarda fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga oid maxsus dastur va ishchi reja ishlab chiqilib, o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish tartibi belgilandi.

2. Tajriba-sinov maydoni sifatida belgilangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda tashkil etiluvchi faoliyat bosqichi. Unda tadqiqot muammosi bo'yicha olib boriladigan sinov ishlarining mazmuni, ularni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar haqida tajriba jarayoni ishtirokchilari – sinaluvchi-o'quvchilarga tushunchalar berildi.

3. Chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarda fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga oid maxsus metodikani dastlabki sinovdan o'tkazish va natijalarni tahlil qilish. Bu bosqichda tajriba-sinov ishlari uchun tayyorlangan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarning ishlanmalari pedagogik jarayonda sinovdan o'tkazilib, natijalar tahlil etildi.

4. Keng ko'lama tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish bosqichi. Bunda tajriba-sinov ishlarining ijobiy natija berishi ta'minlandi, o'tkazilgan tadbirlar yuzasidan munozaralar tashkil etildi.

5. Chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarda fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil etish bosqichi. Bu bosqichda natijalarni umumlashtirish, taqqoslash, ularni matematik-statistik metod yordamida qayta ishslash kabi vazifalar hal qilindi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi metodlarga tayanilgan holda amalga oshirildi:

**1. Pedagogik kuzatish.** Metod chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini amaliy jihatdan o'rghanish, tajribadan avval va keyin o'quvchilarda bilim saviyasini qay darajada shakllanganligini tahlil qilish maqsadida qo'llanildi. Tajriba davrida metoddan samarali foydalanish, shuningdek, chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarda bilim saviyasini shakllanganligining real darajalarini aniqlash imkoniyatini ham yuzaga keltiradi. Pedagogik kuzatish metodi chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini bilish darajasini shakllantirish yo'lida mayjud bo'lgan to'siqlar hamda salbiy omillarni aniqlashga ham yordam beradi.

**2. Anketa so'rovi.** Tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yishda bu metoddan samarali foydalanish chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning

hususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan ob`ektiv va sub`ektiv omillari, ta`lim jarayonining imkoniyatlari haqidagi boshlang'ich va yakuniy ma`lumotlarni to'plashga xizmat qiladi. Tadqiqot davrida anketa so'rovnomasidan ochiq savollarning o'rin olishiga alohida e'tibor berildi. Buning sababi sinaluvchi-o'quvchilardan tadqiq etilayotgan muammoni ijobiy hal qilishga yordam beradigan zarur ma`lumotlarni imkon qadar ko'proq olishdir. Tajriba davrida anketa so'rovlari sinaluvchi-o'quvchilar o'rtasida ikki marta, ya`ni, asoslovchi va ta`kidlovchi tajriba vaqtida tashkil etildi.

**3. Suhbat metodi.** Pedagogika amaliyatida anketa so'rovlarini tashkil etish bir qator afzalliklarga ega bo'lism bilan birga bu jarayonda ma`lum to'siq ham yuzaga kelishi kuzatilgan. Ya`ni undan foydalanishda ko'p hollarda sinaluvchilar ularga taqdim etiladigan savollarga noxolis, ishonarli bo'limgan javoblarni ham qaytarganlar. Bu esa tajriba davrida qo'lga kiritiladigan natijalarning ishonchli bo'lmasligi va etarlicha asoslanmasligiga olib keladi.

**4. Pedagogik tajriba metodi.** Ma`lum muammoni ijobiy hal etishga yo'naltirilgan faoliyatning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladigan pedagogik tajriba tadqiqotning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, tadqiqotning samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirish yo'lida pedagogik tajriba metodidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga tajriba-sinov ishlarini olib borishda ishonch hosil qilindi. Shu sababli chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni haqidagi tushunchalarini shakllantirish muammosini hal qilishda pedagogik tajriba metodidan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot davrida chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyeriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirish muammosi bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov

ishlarining muvaffaqiyatli kechishi tajriba maydonlarida quyidagi ob`ektiv va sub`ektiv omillarning mavjudligiga bog'liqligi aniqlandi:

1. Sub`ektiv omillar:

a) o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirish masalasining zamonaviy sharoitda asosiy, muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilganligi;

b) tadqiqot muammosi bo'yicha yo'lga qo'yiladigan tajriba-sinov ishlari uchun sinaluvchi sifatida tanlangan o'quvchilarining o'zlarida ishonch fazilatlarini shakllantirish ehtiyojiga ega ekanliklari;

v) chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishda ta`lim muassasalarining oila va ijtimoiy tashkilotlar bilan mustahkam aloqa o'rnata olganligi, shuningdek, shu mavzuda o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ular bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etishi;


j) chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni bilishga ba shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning tizimli, uzuksiz va izchil amalga oshirilishi va hokazolar.

2. Ob`ektiv omillar:

a) chaqiriqqacha bo'lgan o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni va ularning hususiyatlarini shakllantirishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitlar (mavzuga doir maxsus adabiyotlarning etarli ekanligi, o'quvchilarining ular bilan etarlicha ta'minlanganliklari, o'quv mashg'ulotlari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ta`lim muassasalari, oila va ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilayotganligi va boshqalar)ning mavjudligi;

Tadqiqotni olib borishda sinov ishlarini tashkil etish uchun tajriba maydonini tanlash va sinaluvchi-talabalar sonini aniqlashtirishga e'tibor

qaratildi Sergili politexnika kolleji tajriba maydonlari sifatida tanlandi. Tajriba maydonlaridan sinov ishlariga jami 45 nafar talaba jalb etildi. Jami sinaluvchi-talabalar amaliyotga tatbiq etilgan metodika samaradorligini xolis baholash maqsadida tajriba hamda nazorat guruuhlariga biriktirildilar. Tajriba guruuhlaridagi sinaluvchi-talabalarning soni 23, nazorat guruuhlaridagi sinaluvchi-talabalarning soni esa 22 nafarga teng bo'ldi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan chaqiriqqacha bo'lган o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning shakllari, mazmuni haqidagi tushunchalarini shakllanganlik darajasi quyidagi diagramma orqali aniqlandi.



Shunday qilib, chaqiriqqacha bo'lган o'quvchi yoshlarni fuqaro muhofazasiga doir meoyoriy xujjatlarning mazmunini o'zlashtirish darajasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishni olib borishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Buning natijasida belgilangan maqsadga erishildi.

## XULOSA

Xozirgi kunda butun dunyoda yoxud butun yer yuzida juda ko'p notinchliklar bo'lib turgan bir paytda bizning yurtimiz ham bundan mustasno emas. Bunday nitinchlikni asosan 2- toifaga bo'lisch mumkin.

1. Tabiy holatda bo'ladigan insonlar va tabiatga juda katta zarar keltiradigan tabiy favqulodda vaziyatlardir. Bularga misol qilib tabiat va qisman insonlar tomonidan sodir bo'ladigan holatdir.
2. Bu insonlarning o'z qo'li bilan yaratilib va undan e'tiborsizlik bilan foydalanish oqibatidir. Misol qilib, ishlab chiqilayotgan qirg'in qurollari va texnogen favquloddagi holatdir. Fuqaro muhofazasi shtablari xodimlarining asosiy vazifasi insonlarni mana shunday xolarda ularga yordam ko'rsatish va hodisalar sodir bo'lganda o'zlarini tutishlari va harakatlanishlarini o'rgatishdir. Buborada Respublikamizda faoliyat ko'rsatilayotgan FVV va fuqaro muhofazasi institutidir. Butashkilotlar tomonidan hozirgi kunda talaygina ishlar olib borilmoqda.

Misol qilib aytishimiz mumkinki μozirgi kunda FVV tomonidan tashkil topib faoliyat ko'rsatayotgan, "Xaloskor", «Najotkor» va shu kabi bir qancha qutqaruv guruhlar o'z faoliyatlarini yuritib kelmoqda.

Respublikamizda ham mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng fuqaro muhofazasi borasida ham juda ko'plab Prezidentimiz tomonidan, Vazirlar mahkamasi tomonidan qonunlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizning barcha o'quv muassasalarida ham fuqaro muhofazasi mashg'ulotlari yaning ishlab chiqilgan dastur bo'yicha o'tilmoqda.

Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan ham tuman hokimlarining o'rinnbosarlari, korxona va tashkilotlarni rahbar-xodimlarini bu borada malakalarini oshirib bormoqda.

Tuman xalq xo'jaligi tarmoqlarida ham har-xil komanda shtab o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari o'quv muassasalarida ham har-xil tadbirlar, fuqaro muhofazsi kunlari tashkil qilinib o'tkazilib

kelinmoqda. Respublikamizda biron-bir tabiy holatmi, favqulodda holatmi ro'y beradigan bo'lsa qutqaruv ishlarini olib borish borasida kuch va vositalar bilan ta'minlash ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.Bunday holatda FVV,MV, IIV, MXX qoshidagi tuzilmalar va shu bilan birga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan juda ko'plab takilotlar ham jalb qilinishi ko'zda tutilgan.FM xodimlarining doimiy vazifalaridan biri qanday holitda bo'lmasin birinchi navbatda qiladigan vazifalaridan biri bu aholini kutilayotgan yoki sodir bo'lgan hodisalardan xabardor qiliqdır. Fakultetimiz talabalari ham bu bora da bir qancha ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu yozgan bitiruv malakaviy ish natijasida ham shu boradi nimalar qilinishi kerakligi haqida o'quvchilari darslari jarayonida keng foydalanishi mumkin bo'lgan qo'llanmalar yaratmoqdalar.

Ushbu mavzu buyicha yozilgan ishdan xalq xo'jaligida va o'quv muassasalarida keng foydalanish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Buyuk kelajak sari. – T.: O’zbekiston, 1999.
2. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. *Fuqaro muxofazasi instituti*.
3. Mahalla-fuqarolik jamiyatining asosi. *M.G’ulomov*.
4. Fuqaro muxofazasi asoslari. *Ma’ruzalar to’plami*.
5. O’zbekiston davlat standartlari.
6. Uchebnaya rekomendatsiya-pamyatka. *Fuqaro muxofazasi instituti*.
7. «Fuqaroskaya oborona» uchebnik dlya pedagogicheskix institutov.
8. «Fuqaroskaya oborona» A.M.Kostrov.
9. O’zbekiston Respublikasi «Aholini va hududlarni tabiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to’g’risida» gi Qonuni. 20 avgust 1999y.
10. O’zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
11. Aholi va xududlarni favqulodda vaziyatdan muxofaza qilishning xuquqiy asoslari. *Meyoriy hujjatlar to’plami*.
12. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T., O’zbekiston, 1992.
13. O’zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.